

VITIS VINIFERA (UZUM) O'SIMLIGIDAN BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALAR TAYYORLASH, SERTIFIKATLASH VA ISHLAB CHIQUARISH

Adikunduzov X.N.

Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrası tayanch doktoranti
Pochta adress: hikmatillo5600@mail.ru Tel: +998 98 276 56 00
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10682719>

Annotatsiya. Maqolada mahalliy uzum navlarining kimyoviy tarkini o'rganish orqali ishlab chiqarilgan biologik faol qo'shimcha haqida so'z yuritiladi. Ushbu BFQ ni sertifikatlash va sinflash hamda ishlatilish soxalari qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Vitis vinifera, uzum, mahlliy, dorivor, yog', BFQ, sertifikat, TIF TN, farmasevtika

Mavzuning dolzarbligi bugungi kunda jahonda inson salomatligini ta'minlash maqsadida turli kasalliklarni oldini olish hamda davolash xususiyatini namoyon qiladigan turli-tuman ta'sirga ega dorivor vositalarni o'simlik manbaalaridan ajratib olish va amliyotga tadbqiq etish asosida yangi dorivor preparatlarni yaratish dolzarb muammolardan biridir. O'simlik manbaalaridan olingan dorivor vositalar tabiiy, ekologik bezarar, salbiy ta'sirlari kamligi, biologik mosligi hamda o'ziga xos ta'sirlari hisobiga sun'iy yaratilgan dorivor vositalardan tubdan farq qiladi.

Tadqiqotning maqsadi *Vitis vinifera* turkumiga kiruvchi mahalliy uzum navlarini kimyoviy tarkibini o'rganish va ulardan tayyorlangan biologik faol qo'shimchallarni sertifikatlashdan iborat.

Tadqiqot usullari zamonaviy fizik tadqiqot usullari, yuqori samarali suyuqlik xromotogrammasi, kalonkali va yupqa qatlamli xromotogramma[1], infraqizil spektrofotometr kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Asosiy natijalar: Farg'ona davlat universiteti olim va ilmiy izlanuvchilari va O'zbekiston fanlar akademiyasi huzuridagi o'simlik moddalari kimyosi institutining ilmiy izlanuvchilari bilan hamkorlikda uzum mag'izining kimyoviy tarkibi o'rganilib chiqilmoqda. O'rganishlar davomida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risi" dagi PQ-307-son qarorlariga kiritilgan ishlab chiqarishga mo'ljallangan 700 mln so'mlik loyiha ishlab chiqilgan bo'lib, hozirda amaliyotga joriy qilingan[2]. Loyiha doirasida "Vitis vinifera Linnaeus" nomli biologik faol qo'shimcha ishlab chiqarilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan BFQ uchun texnikaviy shart (Tsh-02152851-01:2023) va tenikaviy yo'riqnoma (Ty-02152851-01:2023) ishlab chiqildi hamda gigenik guvohnomalar olindi.



Ishlab chiqarilgan biologik faol qo'shimcha.



Ishlab chiqarilgan BFQ asosan teri faoliyatini yaxshilaganligi tufayli kosmetologiyada, qon-tomir elastikligini yaxshilashi va antioksidant (yallig'lanishga qarshi) ta'sirlarga ega bo'lganligi tufayli farmasevtikada ishlatiladi. Ishlab chiqarilgan BFQ uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasida belgilab qo'yilgan qoidalar asosida TIF TN kod ishlan chiqildi hamda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi bojxona qo'mitasining markaziy bojxona laboratoriyasidan tegishli ma'lumotnoma olindi. Ayni payitda "FARG'ONA DORI-DARMON" AJ bilan tegishli hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Ishlab chiqarish jarayoni Farg'ona davlat universiteti tasarrufidagi "FDU INNOVATION" unitar korxonasida (Guvohnoma №309828100) ishlab chiqarilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, farmasevtika mahsulotlarini mahalliyashtirish tufayli inson salomatligi uchun kerak bo'ladigan flovonoidlar, vitaminlar, aminokislotlar tabiiy ravishda yetkazib berish ta'minlanadi. Bizning tadqiqotlar natijasida mahalliy uzum navlari tarkibidagi to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalar miqdori boshqa o'simlik yog'lari tarkibidagiga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Руководство по методам исследования технохимическому контролю и учету производства в масложировой промышленности.- Том II.-Л.-1965 г.-С. 146-147.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risi" dagi PQ-307-son qarorlari.